

ZAMONAVIY PALLADA O‘ZBEK MAQOMLARINING TARIXI VA SHAKLLANISHINI O‘RGANISH



Iqbolxon Tashpo‘latova

“Maqom cholg‘u ijrochiligi” kafedrası dotsenti

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti

iqbolxon@mail.ru

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-04-15>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqom anʼanalarining tarixi, rivojlanishi va zamonaviy musiqa madaniyatidagi o‘rni tahlil qilinadi. O‘zbek maqomlarining shakllanishi, tarixiy jarayonlari va ularning ijodiy va ilmiy muammolari ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, Ustozlarning musiqa madaniyatiga qo‘shgan hissasi yoritiladi. Maqola maqomlarning musiqiy rivojlanishi, ularning xalqchilligi va anʼanaviy o‘ziga xosligini tahlil qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Maqom, O‘zbek maqomlari, Maqomshunoslik, Tarixiy rivojlanish, Musiqa madaniyati, Ustozlar, Musiqiy nazariya.

Аннотация: В данной статье анализируются история, развитие и современное значение традиций макама в музыкальной культуре. Рассматриваются формирование узбекских макамов, исторические процессы и творческие и научные проблемы, связанные с ними. Особенно внимание уделяется устозом-мастерам и их вкладу в музыкальную культуру. Статья сосредоточена на анализе музыкального развития макама, его народности и традиционной особенности.

Ключевые слова: Макамы, Узбекские макамы, Макамознание, Историческое развитие, Музыкальная культура, устозы-мастера, Музыкальная теория.

Abstract: This article analyzes the history, development, and contemporary significance of maqam traditions in musical culture. It examines the formation of Uzbek maqams, historical processes, and the creative and scientific issues related to them. Special attention is given to masters and his contributions to musical culture. The article focuses on the analysis of the musical development of maqams, their popularity, and traditional uniqueness.

Keywords: Maqam, Uzbek maqams, Maqam studies, Historical development, Musical culture, Ishoq Rajabov, Music theory.

O‘zbek xalqining musiqa san‘atida muhim rol o‘ynaydigan maqom anʼanalari tarixan uzoq va murakkab rivojlanish yo‘lidan o‘tganligi ma‘lum. Ushbu san‘atning ijrochilik mezonlari dastlab saroy san‘atkorlarining faoliyatida o‘z aksini topgan, og‘zaki uslub sharoitida esa kengroq rivojlanish ko‘rsatkichlarini qamrab olgan. O‘zbek musiqasi tarixan ikki asosiy yo‘nalishda rivojlanib kelgan: xalq musiqa ijodiyoti va milliy mumtoz musiqa. Xalq musiqa ijodiyoti (folklor) o‘zining soddaligi, musiqiy ifoda vositalarining oddiyligi, tez qabul qilinishi va yodda qolishi bilan ajralib turadi.

Ushbu jarayonlarning o‘ziga xos qonuniyatlar asosida rivojlanishi musiqaning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi. Milliy mumtoz musiqa esa o‘zining salobatli tuzilishi, janrlar tizimi, ijro anʼanalari, qonuniyatlari va qadriyatlarini bilan farqlanadi. Bu musiqa turi yirik musiqiy elementlarning shakllanishi, muayyan terminlarning yuzaga kelishi va o‘ziga xos ifoda vositalari hamda ularning maxsus doiralardagi urf-odatlarini bilan ajralib turadi. Maqomlarning nazariyasi esa musiqiy tilni (ifoda vositalari tizimini), ya‘ni musiqiy elementlarning tizimli ravishda bog‘lanishi, uyg‘unlik hosil qilishi va ma‘lum shakl hamda badiiy asar sifatida yuzaga kelishini o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda san'at va madaniyatga e'tibor - ijtimoiy islohatlarning bosh mezoni sifatida ko'rilyotgani hech kimga sir emas. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan chiqarilayotgan farmon va qarorlar bevosita san'at va madaniyat sohasini yanada taraqqiy toptirishga xizmat qiladi. Jumladan, sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustda "O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish to'g'risida"gi PQ3920-sonli qarori, 2018-yil 28-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4038-sonli qarori, 2020-yil 26-maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6000-sonli farmoni qabul qilindi.

Shu bilan birgalikda, 2021-yil 9-dekabrda "Madaniyat va san'atni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-36-sonli qarori hamda 2022-yil 2-fevralda "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-sonli qarorlarida ham sohaga oid dolzarb masalalar belgilangan bo'lib, ularni amalga oshirishda soha mutasaddilariga juda katta vazifalar yuklatilgan. Shular bilan bir qatorda 2023-yil 11-sentabrda "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son farmonida 7 Respublikamizda 2030-yilga qadar madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilishi kerak bo'lgan islohotlar aniq belgilab berilgan.

Yaqin tarixda O'rta Osiyo, shuningdek, Yaqin va O'rta Sharq mintaqalaridagi qadimiy madaniy markazlarda maqom yo'llarining ijodiy, ijroviy va uslubiy jihatlari bir-biridan farq qilgan. IX asrdan boshlab o'rta Osiyoda musiqa o'ld risolalar yozila boshlanadi. Ularda musiqaning ilmiy-nazariy masalalari sinchiklab o'rganilgani, musiqa cholg'ulari bilan bog'langan holda atroflicha tavsiflanishi, shuningdek, o'z davrining yetakchi musiqachilari va qadimiy musiqa asarlarining nomlari keltirilganini ko'rish mumkin.

Mazkur ishlarning ko'pchiligida nazariy qismi ikki faslga: nag'ma va parda tizimi ilmi hamda ilmi iyqo' (ritm asoslari)ga ajratiladi Ushbu ishlar orasida Abu Nasr Forobiy (870-950), Safiuddin Urmaviy (1216- 1294), Abdulqodir Marog'iy (1353-1435), Abdurahmon Jomiy (1414-1492) va boshqa olimlarning ilmiy qarashlarini keltirish mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, o'rta Osiyo nazariyotchilarining ko'pchiligida antik faylasuflar Pifagor va uning maktabining chuqur ta'siri seziladi. Xususan, Pifagor ta'limotidagi ikki nuqta - matematik va tasavvufiy ilm sharq klassiklarining barcha musiqiy nazariy ishlari uchun muhim nuqta deyish mumkin.

Sharq mutafakkirlarida, xususan, Forobiy ("Kitabul musiqiy al-kabir"), Ibn Sino ("Risalatun fi-ilmil musiqiy") va Xorazmiy ("Mafotixul ulum") asarlarida musiqaning nazariy asoslari ikki asosiy qismga bo'linadi. Birinchi qism "Ilmi ta'lif" (kompozitsiya), ikkinchisi esa "Ilmi iyqo'" (ritm) deb ataladi. "Ilmi ta'lif" tushunchasi bugungi kunda lad va maqom atamalariga o'xshash tarzda ishlatiladi.

Keyingi davrlarda, Safiuddin Urmaviydan boshlab Abdurahmon Jomiygacha bo'lgan davrda "ilmi ta'lif" va "ilmi iyqo'" tushunchalari umumlashtirilib "ilmi advor" deb atalgan. Bu tushunchalar, asosan, lad va maqomga o'xshash nazariy tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Ko'plab ilmiy manbalarda maqomlarning tarkibiy tuzilishi, o'ziga xos xususiyatlari va ularning nazariy hamda amaliy tomonlari chuqur o'rganilgan. Maqomlarning ma'no-mazmunini anglashda, xususan, nazariy xususiyatlar, parda-lad (lad) tizimlari va ularning o'zaro munosabatlari, usul doiralari, shakl va shakllanish qonun-qoidalari tadqiq qilishning ustuvor ahamiyati bor.

Amaliy jihatdan esa musiqiy cholg'ular, ayniqsa maqom ijrosida asosiy rol o'ynaydigan tanbur kabi sozlarning tovush (akustik) tuzilishi va ijro an'analari haqida ma'lumotlarni to'plash va chuqur o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, Sharqiy Turkistondan boshlab xalqaro ilmiy-musiqiy aloqalarning ijod jarayoniga ta'sirini hisobga olish zarur. Maqom va cholg'u asarlarning asosiy tamoyillari, ular orasidagi umumiylik va qonuniyatlar barqarorligi, shuningdek, turli nomdosh shakllarining o'zgarishi hozirgi kungacha saqlanib kelmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston va Tojikiston hududida maqom amaliyoti, zamonaviy tilda aytganda, katta va o'ziga xos ijodiy maktab darajasiga ko'tarilgan. Maqom shakllari, taxminan

Shashmaqom shakllanishi davrida, milliy va mahalliy musiqa muhitida rivojlanib borgan. Natijada, eski musiqiy qadriyatlarimiz xalqchil ko‘rinish va rang-barang xususiyatlari bilan bizgacha yetib kelmoqda.

Ularning o‘z vaqtida O‘rta Sharq va jahon xalqlari madaniy merosiga muhim hissa qo‘shganlari aniq. Biroq, o‘tgan asrlar davomida maqom ijodkorligi sohasida yuzaga kelgan jarayonlarning ilmiy asosda batafsil o‘rganilganini aytish qiyin. Shunga qaramay, ushbu mavzuga oid musiqiy va estetik ma‘lumotlarni eski qo‘lyozmalar va boshqa qo‘shimcha manbalardan olish mumkin. Shunga o‘xshash ishonchli ilmiy va badiiy dalillar, masalan, ustoz-shogirdlik tizimi orqali bizgacha yetib kelgan xilma-xil cholg‘u va ashula maqom yo‘llari, Sharq nota yozuvi hujjatlari, shuningdek, adabiyot, she‘riyat va tasviriy san‘at namunalari musiqiy mavzular bilan bog‘langan holda maqomlarning rivojlanishi haqida ma‘lum bir tasavvur olish imkonini beradi.

Markaziy Osiyoda maqomlarning ijodiy qo‘llanilishi XVII asrdan boshlab ko‘plab yangilanishlar va o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Masalan, O‘zbekiston hududida Buxoro maqomlari, Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari kabi turkumlar shakllanib, o‘z o‘rnini topdi. Ularning o‘rtasidagi farqlar mavjud bo‘lsa-da, umumiy o‘xshashliklar alohida ajralib turadi. XX asrning boshlariga kelib, eski mumtoz musiqa tizimlari siyosiy va ijtimoiy murakkabliklar sababli qiyin vaziyatga tushib qolgandek ko‘rinadi. Shu sharoitda, nafis ijod va mukammal ijro an‘analari zarar ko‘rgan. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonning rus imperiyasi tomonidan bosib olinishi va Yevropa musiqasining ta‘siri haqidagi mulohazalar turli nuqtai nazarlardan baholanishi mumkin.

Yevropa musiqasining kirib kelishi, albatta, yangi yo‘nalishlar va janrlarni olib kelgan. Bu jarayon, shubhasiz, Turkistonning madaniy hayotida sezilarli o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Shu bilan birga Yevropa musiqasining kirib kelishi va professional musiqachilar, kompozitorlar va madaniy markazlarning tashkil qilinishi yangi imkoniyatlar yaratdi va musiqiy ta‘limning rivojlanishiga yordam berdi. Masalan, Turkiston Xalq dorulfununi va Turkiston Xalq konservatoriyasining tashkil qilinishi, zamonaviy nota yozuvi va musiqa madaniyatining shakllanishiga katta hissa qo‘shdi.

Biroq, ushbu jarayonning mahalliy musiqiy an‘analar va uslublarga qanday ta‘sir ko‘rsatganini baholashda ehtiyotkorlik zarur. Yevropa musiqasi va pedagogikasi o‘zbek musiqasining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zgarib ketishiga sabab bo‘ldi. Mahalliy musiqaning yangi yo‘nalishlar va janrlar bilan aralashishi, musiqiy diversifikatsiya va innovatsiyalar uchun imkoniyat yaratgan bo‘lsada, o‘zbek musiqasining an‘anaviy elementlari va xususiyatlariga jiddiy shikast ham yetkazdi.

Shuning uchun bu jarayonning salbiy yoki ijobiy tomonlarini to‘liq baholash va muvozanatli yondashuv zarur. O‘zbek musiqasining rivojlanishi va o‘ziga xosligini saqlash borasida, yangi ta‘sirilar va yo‘nalishlar bilan uyg‘unlashgan holda, musiqa madaniyatining evolyutsiyasini alohida o‘rganish zarur. Esda tutish kerakki, mustaqillikdan oldin, maqomga bo‘lgan rasmiy munosabatlar mas‘ul shaxslarning qarorlariga yoki umummadaniy siyosatga qarab tez-tez o‘zgarib turgan. Biroq, ushbu turdagi yashirin va ochiq qarama-qarshiliklardan qat‘iy nazar, maqomlar, o‘zining chuqur va mustahkam ildizlari bilan, barcha sinovlardan o‘tib, xalqchiligi, mukammalligi va go‘zalligi bilan barcha to‘siqlarga bardosh bera oldi.

Shu bilan birga, maqom an‘analarining kasbiy darajasini butunlay saqlab qolish juda murakkab vazifa bo‘ldi. Natijada, uning asosan taqlid va havaskorona ijrochilik shaklida davom etishi ko‘zga tashlandi. O‘rganilsa, zamonaviylashgan ijodiy oqimlar vaqt o‘tishi bilan ozmi-ko‘pmi ta‘sir ko‘rsatdi.

O‘zbek maqomi qo‘shiqchilik, teatr musiqasi, an‘anaviy bastakorlik va yangi kompozitorlik izlanishlariga mustahkam asos bo‘lib xizmat qildi. Bir necha asr davomida mumtoz musiqa asarlari o‘z hajmi va ko‘lamini oshirib, xalqimizning musiqiy urf-odatlarida yetakchi o‘rin egalladi. Zamonaviy o‘zbek olimi va maqomshunos Otanazar Matyoqubov shashmaqomning amaldagi shakllarini, jumladan, Buxoroda ijro etilayotgan andozasini “jonli musiqiy meros” sifatida ta‘riflab, uning amaliyotda yetuk urf-odat (mutaorif udum) ekanligini ta‘kidladi.

Matyoqubovning bu qarashi shundan dalolat beradiki, nodir majmua bejiz “jonli musiqiy meros” deb atalmoqda emas. O‘zbek maqomlari doimiy rivojlanish jarayonida bo‘lib, hozirgi shakli o‘zining avvalgi namunalariga nisbatan to‘liq va takomillashgan ko‘rinishda namoyon bo‘layotganini, shuningdek, doimiy harakatda bo‘lishini ko‘rsatadi. Shu o‘rinda musiqashunoslik sohasining bugungi holatini va uning rivojlanish yo‘nalishlarini diqqat bilan ko‘rib chiqish zarur.

Hozirgi kunda musiqa madaniyatini o‘rganish va targ‘ib qilish sohasida qanday ahvol kuzatilmoqda? O‘zbek musiqashunosligi, ayniqsa, tarixiy va nazariy jihatdan qanday muammolar bilan duch kelmoqda va bu sohadagi qaysi tugunlar hali ham yechilmagan? Xalq musiqasi, milliy mumtoz musiqa va zamonaviy musiqa madaniyati, bastakorlik va kompozitorlik ijodiyotini o‘rganish, albatta, muhim vazifalar sirasiga kiradi.

Biroq, ushbu sohada ba’zi asosiy muammolar va cheklovlar mavjud. Masalan, musiqashunoslikda ko‘plab yetishmovchiliklar mavjud bo‘lib, ular ilmiy tadqiqotlarda qamrab olinmagan yoki yetarlicha o‘rganilmagan. Tarixiy kontekstda musiqiy an‘analari va ularning evolyutsiyasi to‘liq aks ettirilmayapti, bu esa o‘z navbatida, milliy musiqaning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq tushunishga to‘sqinlik qiladi.

Shuningdek, musiqashunoslikning zamonaviy uslublari va metodologiyalarini ishlab chiqish zarurati tug‘iladi. Hozirgi kunda ilmiy tadqiqotlarning natijalarini amaliyotga tatbiq etish va musiqiy madaniyatni targ‘ib qilishda ko‘plab qiyinchiliklar mavjud. Masalan, musiqiy nazariyalar va amaliyotlarning mos kelmasligi, shuningdek, milliy musiqaning yangi janrlar bilan uyg‘unlashishidagi qiyinchiliklar, bu sohada hali ham ko‘plab yechilmagan masalalarni ko‘rsatadi.

Shunday qilib, musiqashunoslik sohasidagi muammolarni bartaraf etish va yangi imkoniyatlarni ochish uchun chuqur tahlil va innovatsion yondashuvlar zarur. Xalq musiqasi va zamonaviy musiqa madaniyatini to‘liq tushunish va o‘rganish uchun ilmiy tadqiqotlarning sifatini oshirish, zamonaviy metodologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo‘llash zaruriyatini e’tiborga olish lozim.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fitrat A. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. - Toshkent: Fan, 1993
2. Matyoqubov O. Maqomot T., 2004
3. Matyoqubov O., Boltayev R., Aminov H. O‘zbek notasi (Xorazm tanbur chizig‘i asosida Dutor maqomi namunalari) T., 2009
4. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent, 1963
5. Rajabov Y. Shashmaqom, (I-VI); O‘zbek xalq muzikasi. (I-V) Toshkent. 1965
6. Yunusov R. O‘zbek xalq musiqasi ijodi II-qism. T., 2000
7. Yunusov R. Sharq xalqlari maqomlari T., 2022
8. Джами Абдурахман. Трактат о музыке. /пер.с перс. А.Н. Болдырева. Комент.В.М. Беляев. Т., 1960
9. Ибрагимов О. Фергано-Ташкентские макомы Т., 2006
10. К вопросу о ладовой и идейной преемственности бухарского шашмакома “Консерватория” журнал 2019 №2
11. Кароматов Ф. Узбекская инструментальная музыка. Т., 1972
12. Матякубов О. Узбекская классическая музыка. Т., 2015